| № | Yo'nalish kodi | Ta'lim yo'nalishi nomi | Kunuzgi | Sirtqi | Egallaydigan kasbi |
|---|---|---|---|---|---|
| 38 | 60811800 | Mevachilik va uzumchilik | | + | Mevachilik va uzumchilik agronomi |

Yo‘nalish tavsifi

Mevachilik va uzumchilik bakalavriat ta'lim yo‘nalishi - fan va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasi yo‘nalishi bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida mevachilik va uzum mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati uchun xom- ashyo tayyorlash; mevachilik va uzumchilik ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish; meva sabzavot va uzum mahsulotlari hosildorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Ta'lim yo‘nalishi - mevali bog‘lar, tokzorlar va rezavor meva bog‘larini yaratish loyihalarini tuzish, meva,va uzum yetishtirish va hosilini yig‘ib olish bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, mevachilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari agronomi, agronom-ko‘chatchi, bog‘bon, mevachilik va uzumchilik sohalari bo‘yicha mutaxassis, mevachilik va uzumchilik sohalari bo‘yicha ekspremental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berishda faol qatnashish kabi faoliyatlar bilan shug‘ulanish imkonini beradi